Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 5 2026

ODIL YOQUBOV HIKOYALARIDA DIALEKTIZM

Mannopova Dilshoda Xabibullayevna
Turon Universiteti Andijon filiali. O'zbek tili lingvistikasi 1-kurs magistranti
mannopovadilshoda251@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov hikoyalardagi shevaga xos so'zlarning qo'llanishi yoritib berilgan.Odil Yoqubov-o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib,o'z asarlarida xalqning ruhiyati,ijtimoiy hayoti va millioy qadriyatlarini chuqur aks ettirgan yozuvchidir.Uning hikoyalarida dialektizm,yani mahalliy sheva so'zlarning ishlatilishi,badiiy tasvir vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.Adib o'z hikoyalarida dialekt so'zlarni asosan qahramonlarning og'zaki nutqida ishlatadi. Ya'ni qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi,hududiy mansubligini ko'rsatadi. Ularning mentaliteti va fikrlash tarzini aniqroq tasvirlaydi.Asarni xalqona ruh bilan boyitadi.Demak Odil Yoqubov o'z asarlarida xalq hayoti,ruhiy olami va ijtimoiy muammolarini yuksak badiiylik bilan tasvirlagan.Unung hikoyalarida xalq tiliga yaqinlik,hayotiylik va tabiiylik kuchli seziladi.Bu holatga erishishda yozuvchi dialektizmlardan-ya'ni mahalliy sgeva so'zlardan ustalik bilan foydalangan.

Kalit so'zlar: Dialekt, sheva, laxja, badiiy talqin, til geografiyasi, etnografiya, lug'at, mahalliy sheva, milliy kolorit, hududiy xususiyatlar, leksik boylik.

Abstract: This article examines the use of dialect-specific words in the short stories of Odil Yoqubov, a People's Writer of Uzbekistan. Odil Yoqubov is one of the most prominent representatives of Uzbek literature, a writer who deeply reflects the psychology, social life, and national values of the people in his works. The use of dialectisms - that is, local dialect words - in his stories occupies an important place as a means of artistic expression. The writer primarily employs dialect words in the oral speech of his characters: they reveal the characters' social background and regional identity, depict their mentality

and mode of thinking more precisely, and enrich the work with a folk spirit. Thus, Odil Yoqubov portrayed the life, inner world, and social problems of the people with a high degree of artistic mastery. A closeness to the folk language, vitality, and naturalness are strongly felt in his stories and to achieve this effect, the writer skillfully made use of dialectisms, that is, local dialect words.

Keywords: Dialect, vernacular, subdialect, literary interpretation, linguistic geography, ethnography, lexicon, local dialect, national color, regional features, lexical richness.

Аннотация: В данной статье рассматривается употребление диалектных слов в рассказах народного писателя Узбекистана Одила Якубова. Одил Якубов - один из ярких представителей узбекской литературы, писатель, глубоко отразивший в своих произведениях психологию народа, его социальную жизнь и национальные ценности. Использование диалектизмов - то есть слов местных говоров - в его рассказах занимает важное место как средство художественного изображения. Писатель применяет диалектные слова преимущественно в устной речи персонажей: они раскрывают социальное происхождение и региональную принадлежность героев, точнее передают их менталитет и образ мышления, а также обогащают произведение народным духом. Таким образом, Одил Якубов с высоким художественным мастерством изобразил жизнь народа, его духовный мир и социальные проблемы. В его рассказах отчётливо ощущается близость к народному языку, жизненность и естественность - и для достижения этого эффекта писатель умело использовал диалектизмы, то есть слова местных говоров.

Ключевые слова: Диалект, говор, наречие, художественная интерпретация, лингвистическая география, этнография, лексикон, местный говор, национальный колорит, региональные особенности, лексическое богатство.

Dialektologiya har bir davrni o’z holaticha o’rgangan olimlarni, etnograflarni, tilshunoslarni, adabiyotshunoslarni o’ziga tortgan manbaadir. Ammo biz taxlilga tortgan mavzu atroflicha o’rganilmagan, shuning uchun badiiy asarlarda shevaga xos so’zlarni chuqurroq o’rganish bugungi zamon talablariga mos kelgan mavzudir Dealektizm ishlatish asar tilini oddiylashtiradi,xalqqa yaqinlashtiradi. Ayniqsa,qarindosh- urug’lar, qo’shnilar, dehqonlar o’rtasidagi suhbatlarda bu seziladi. Badiiy asarlarda dialoktologiya (shevaga) xos so’zlarning etimologiyasi, viloyatlarda turli hil ko’rinishda qo’llanilishi haqida ma’lumot berish bugungi tilshunoslik rivoji uchun juda zarur. Nafaqat tilshunoslik shevalardagi so’zlar til geografiyasi, xalq etnografiyasi haqida ham ma’lumot beradi. Demak geografik obyektlar tarixiy joy nomlari, xalqlarning kelib chiqishi haqida ham ma’lumotlar ochiqlanadi. Odil Yoqubov hikoyalaridagi qo’llanilgan dialektizm dolzarb masalalardan biri.

O’zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov, ma’rifatparvar shoir, dramaturg, adabiyotshunos sifatida ijod qilgan. Adib ijodida shevalarga xos so’zlarning o’z davrida qo’llanishi haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi, ammo badiiy asarlarda qo’llanilgan shevaga xos so’zlar turli viloyatlardagi so’zlarning o’zgarishi o’rganilmagan.Maqolada shevalarni o’rganishda metod va badiiy asarlarning struktural tahlili metodlaridan foydalangan holatda O.Yoqubov hikoyalarida shevaga xos so’zlarning qo’llanishi tahlil qilindi, hamda bir qancha badiiy asarlar misolida shevalarning o’rni va vazifasi yoritiladi.Ma’lumki tilning fonetik, grammatik va lug’aviy jihatdan o’ziga xos xususuyatlarga ega bo’lgan shevalarning eng kichik hududiy ko’rinishi sezilarli lisoniy tavofutlari bo’lmagan bir yoki bir necha aholi maskanida yashovchilarni so’zlashuv vositasi sifatida qo’llanadi. Sheva-bu boshqa sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so’z yasalishi va lug’aviy belgilariga ko’ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo’ladi. Shevalar tizimning murakkablik darajasi sasosan ekstalingvistik omildir. Shevaning alohidalanishi darajasi, muayyan sheva vakillarining boshqa shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi abadiy tilning ta’siriga bog’liqdir. Shevalar abadiy til tushunchasiga kirmaydi , biroq ular tilning shakli va tarmoqlari hisoblanib adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi.

Odil Yoqubov mohir tarjimon, munaqqid publistik yozuvchi edi. Uning hikoyalari avtobiografik harakterga ega bo'lib, unda yozuvchining og'ir bolalik xotiralari qalamga olingan. Shu bilan birga adib hikoyalarida shevalarga oid so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Adibning "Muzqaymoq" hikoyasini ko'zdan kechirarkanmiz, So'fi, mezana, chorxori, gujum, changak kabi bir nechta shevaga oid so'zlarga guvoh bo'lamiz.

"Dadamlar bir mahallar Qozog'iston xalq komissarlari kengashi qoshida tuzilgan mayda millatlar komissari lavozimida ishlagan. SAKU ni tugatganidan keyin esa hozirgi Chimkent viloyatining Sayram rayonida birinchi kotib, keyinroq esa Qozog'iston temir yo'li Siyosiy boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari vazifalarida xizmat qilgan. Lekin keyingi yillar "Otang So'fi bo'lgan, sen buni yashirgansan", -degan ayibnoma bilan pastga surila-surila oxir-pirovardida Turkiston tumani moliya bo'limiga mudir etib tayinlngan edilar".

Ushbu parchadagi "So'fi" so'zi turli viloyatlar har hil nom bilan ataladi. Masalan: Andijon, Farg'ona, Namanganda "domla", "Qori" nomlansa, Janubiy Qozog'iston shevasida "So'fi" deb nomlangan.Adabiiy tili va sheva nutqida turlicha ma'nolarda va funksiyalarda ishlatiladi .Bu so'zni shevalarda ishlatilish shakllarini ko'rib chiqamiz.Adabiy tilimizda ''so'fi''-asosan dindor,zohid degan ma'noni anglatadi.Shevalarda bu so'z mazmun jihatdan kengayadi va ba'zida kinoya yoki hazil ohangida ham ishlatiladi.

"Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko'chaning boshida qo'sh ot qo'shilgan chiroyli foytunga ko'zim tushdi". Ushbu parchadagi "Foytun" so'ziga e'tibor qaratsak, "Foytun" so'zi asosan O'zbekistonning janubiy hududlarida islatiladigan shevaga xosdir. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida, ayniqsa Qashqadaryoda quyon ma'nosida keng qo'llaniladi. Sharqiy Xorazm shevalarida ham ushbu so'z ishlatiladi. Bu so'z "Fotun" shaklida ham uchraydi va ko'pincha "Quyon" ma'nosini bildiradi. Surxondaryosi shevasida ham "Quyon" ma'nosini anglatadi. Demak, adib Janubiy Qozog'istonning Qarnoq qishlog'ida yashab o'tganligini hisobga olsak, "Foytun" so'zi janubiy Qozog'iston qishloqlarida ot qo'shilgan arava ma'nosida ishlatilgan.

“Dadamlar, ulkan chorxari uyimizning to’rida kitob varaqlab,yonboshlabyotardilar’’. Ushbu parchada keltirilgan ‘’chorxari’’so’zishevaga xos so’z bo’lib,to’rtta kesuvchi xarisi bo’lgan molar turadigan bostirma ma’nosida ishlatiladi.Chorxari Janubiy Qozog’istonda uy yoki ayvon ma’nosida ishlatiladi.’’Chorxari’’so’zi tojik tilida ‘’chor’’so’zining o’zbek tiliga olingan shakli bo’lib ‘’to’rt’’ ma’nosini anglatadi.

“Hovlimizda shundoq o’choq yonida bir tup gujum o’sar,gujum tagida chuqur quduq bo’lar,issiq yizda go’shtni shu quduqda asrar edik. “Gujum” so’zi o’zbek tilining izohli lug’atiga ko’r, biror narsaga qalin qilib, zich yig’ilgan halatini anglatadi. Masala, “O’t o’lan gujum bo’lib o’sgan”, deyilganda o’t-o’lanlarning zich joylashgai nazarda tutiladi.

“Gujum” so’zi uzum donasi yoki shingili ma’nosida ham qo’llaniladi. Xorazmda hovuz desa darhol ko’z oldinga kata-katta gujumlar-qayrag’ochlar keladi. “Gujum” Xorazmning yashil turizmning belgisi hamdir.Gujum daraxti yuz yildan ortiq umr ko’radi.

Ushbu daraxt yuz yildan ortiq umr ko’rib, chuqur ildiz otib, qurg’oqchil o’simlik bo’lib, sho’rlangan yerlarda ham o’saveradi.

Xulosa qilib aytilganda, o’zbek xalqshavalari o’zbek tilining dialectal xilma-xilligi hisoblanadi va ko’pincha uchta asosiy lahjaga bo’linadi. Bu shevalar O’zbekiston va qo’shni hududlardagi o’zbek aholisi tomonidan qo’llaniladi va tilning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarida farqlanadi. Ushbu shevalarni o’rganish dialektologiya fanining muhum qismi bo’lib, adabiy tilni boyitishga xizmat qiladi. Demak, o’zbek tili muayyan shevalar asosida tartibga tushirilgan tildir. Adabiy tilning shakllanishida, takomillashishida an’anaviy yozma mumtoz adabiy til boshqa tillar (arab, fors, topik, rus, va yunon tillari) katta ta’sir ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odil Yoqubov “Muzqaymoq” hikoyasi.

2. **“**O’zbek tilining izohli lug’ati” A.Madaliyev tahriri ostida 5 jildlik, 2 jild

3. “O’zbek tilining imlo lug’ati”

4. “O’zbek xalq shevalari lug’ati “1971-yil

5. Izoh.uz sayti